

QORAXONIYLAR DAVLATI

A.Sh.Rajabov

Buxoro davlat Pedagogika instituti tarix fani o'qituvchisi

J.O.Qodirov

Buxoro davlat Pedagogika Instituti 1-2 tar 22 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869649>

Annotatsiya: Qoraxoniylar o'z davlat chegarasini somoniylar sulolasiga tegishli hududlar hisobiga kengaytirish siyosatini olib borishgan. Somoniylar hokimiyati bu vaktga kelib, chuqur siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga yuz tutib zaiflashib qolgan edi.

Kalit so'zlar:Qoraxoniy, Yettisuv, Qashqar, Tarozi, isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'ona

Qoraxoniylar yoxud Xoqoniylar davlati — Sharqiy Turkiston, yettisuv va Tyanshanning janubiy yon bag'rida tashkil topgan davlat. Qoraxoniylar sulolask boshqargan. Qoraxoniy davlatining barpo etilishida qarluq, chig'il va yag'mo qabilalari yetakchi rol o'ynagan. Qoraxoniylar davlatining saltanat darajasidagi rivoji va taraqqiyoti 10-asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi. Abdulkarim Sotuq Bug'roxon hokimiyatni egallab, o'zini «Qoraxon» deb e'lon qiladi. Bug'roxondan keyingi barcha xonlar ham ushbu unvon bilan ulug'langan. Mazkur davlat chegarasida islom dini keng yoyilgan. Qoraxoniylar o'z davlat chegarasini somoniylar sulolasiga tegishli hududlar hisobiga kengaytirish siyosatini olib borishgan. Somoniylar hokimiyati bu vaktga kelib, chuqur siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga yuz tutib zaiflashib qolgan edi. Ana shunday vaziyatda qoraxoniylar somoniylar poytaxti Buxoroni deyarli qarshiliksiz ishg'ol etishadi. Biroq, Hasan Bug'roxon betobligi tufayli Buxoroda uzoq turmay, Qashqarga qaytishda yo'lda vafot etadi. 996-yil qoraxoniylar yana Movarounnahr sari yurish boshlaydi. G'aznaviylar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida o'rtada shar-tnoma tuzilib, unga ko'ra, Sirdaryo hav-zasi qoraxoniylar qo'lga o'tadi. Amudaryoning jan. dagi yerlarda va Xuroson hududida Sabuktegin hukmronligi o'rnatiladi. Somoniylar ixtiyorida esa Movarounnahrning markaziy qis-migina qoladi. Somoniylar hokimiyati tugatilgach, 10-asr oxirlariga kelib, Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridan to Yettisuv, sharqda esa Torim daryosigacha bo'lgan katta hududga egalik qiladi. Amudaryo Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlati o'rtasida chegara bo'lib qoladi. Lekin ushbu 2 turkiy davlat o'rtasida ham Xuroson hududi uchun o'zaro urushlar bo'lib o'tadi. 1006 va 1008-yillarda qoraxoniylar Xurosonga qo'shin tortib, Balx, Tus va Nishopur sh. ni zabt etadi. Lekin Sulton Mahmud G'aznaviy qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o'z qo'lida saqlab qoladi. G'aznaviylar keyinchalik dastlab o'zlari yer

berib, homiylik qilgan saljuqiylar bilan zid-diyatga kirishib, o'rtada katta harbiy to'qnashuvlar yuz beradi. 1040-yillarda esa Dandanakon jangida g'aznaviylar saljuqiylar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab o'zlarini qaytib o'nglay olmaydi. G'aznaviylar davla-tini bu inqirozidan, qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo'ritegin foydalanib qoladi. U dastlab Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi. Keyinchalik butun Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysundi-rib mustaqil siyosat olib boradi. Oqibatda Qoraxoniylar davlati 1041-yilga kelib 2 mustaqil davlatga: sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib ketadi. Sharqiy qis-miga Yettisuv, Qashqar, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'ona kirgan. Poytaxti Bolasog'un, madaniy markazi Qashqar bo'lgan. G'arbiy qism Movarounnahrdan to farg'ona vodiysining g'arbiy chegarasigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. Markazi Samarqand hisoblangan. Yagona Qoraxoniylar davlati bu tarzda ikkiga bo'linishi va ular o'rtasida sulolaviy kurashlarning davom etishi, yerdan foydalanishga iqto tartibotining keng yoyilishi va mahalliy hokimlarning kuchayishi markaziy hokimiyatni zaiflashtirib qo'yadi. Natijada Qoraxoniylar davlati 1130-yilda saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjarga tobe bo'lib qoladi. 12-asrning 30-yillari oxirida Qoraxoniylar davlati sharqdan kelgan yangi istilochilar ko'chmanchi qoraxitoylar hujumiga duchor bo'lib, parchalanib ketdi. Lekin Qoraxoniylar davlati, garchi tarqoq holda bo'lsa-da, 13-asrning boshiga qadar mavjud bo'lgan. 1212-yilda qoraxoniylarning so'nggi vakili Usmon ibn Ibrohimning Alouddin Muhammad Xorazmshoh tomonidan qatl etilishi qoraxoniylarni sulola sifatida rasman barham topi-shiga olib keldi. Qoraxoniylar davlati vujudga kelgan dastlabki vaqtda, uning etnik asosi va aholisining tarkibini Yettisuv, Isfijob, Shosh, Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismi, Farg'onaning shim-sharqiy hududlarida yashovchi qarluq, chigil, xalach, to'xsi va arg'un kabi ko'plab qabilalar tashkil etgan. Qoraxoniylar keyinchalik Movarounnahr uzra o'z hukmronligini o'rnatgach, o'lkalarda qadimdan yashab kelayotgan o'troq va ko'chmanchi aholini, mazkur yagona davlatning umumiy chegaralarida o'zaro bir-biriga yaqinlashish va aralashib borish jarayoni tezlashdi. Ularning iqtisodiy, madaniy hayoti, bir-biri bilan aloqa-dorlikda rivojlana bordi. Tub yerli aholi ta'sirida yarim ko'chmanchi va yarim o'troqlikda yashab kelgan etnik guruhlar o'troqlashib dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanadilar. Qoraxoniylar davlatchilik tizimi o'zidan oldin o'tgan Turk xoqonligi, Turkesh davlati kabi turkiy davlatlarning davlatchilik tajribasi va an'analariga asoslangan. Qoraxoniylar sulolasi davlat boshqaruvida bu tajribalardan unumli foydalanib, o'z navbatida, uni rivojlantirib, yangi taraqqiyot

bosqichiga olib chiqqan. Qoraxoniylar davlatida slab tashkil topgan vaktida (9-asrning o'rtasi) ma'muriy-boshqaruv tizimi, qabilalarning o'zaro ittifoqi negiziga asoslangan edi. Bunda davlat boshlig'i «yabg'u» deb nomlangan. O'lkadagi barcha qabilalar yabg'uga bo'sungan, ayni vaqtda yabg'u o'zi hukmronlik qilayotgan hududdagi barcha qabilalarni tashqi hujumlardan himoya qilgan. Joylarda har bir qabilani o'z sardorlari boshqargan. Qabila sardorlari ayni vaqtda, shu qabilani harbiy sarkardasi bo'lib, xoqon noibi hisoblangan. Harbiy harakatlar vaqtida ular yabg'uning buyrug'iga binoan o'z harbiy bo'linmalari bilan urushda qatnashishgan. Vaqt o'tishi bilan qoraxoniylarning bu ma'muriy boshqaruv usuli rivojlanib, takomillashib borgan. 10-asrning o'rtalariga kelib, Qoraxoniylar davlati o'z tarkibiga qo'shni qabilalarni ham qo'shib olib, hududiy jihatdan kengayib, katta siyosiy kuchga aylangach, ularning davlat boshqaruvida ham ma'lum islohotlar yuz berdi. Davlat tepasida odatda «qoraxon» unvoni bilan ulug'langan «buyuk xon» o'tirgan. Xonlik taxtiga og'a-inichilik udumi asosida sulolaning eng yoshi ulug' kishisi o'tirgan. Xonlar «qoraxon» unvoni bilan birga tavg'achxon, arslonxon, bug'-roxon kabi faxriy unvonlar bilan ham ulug'langan. Qoraxoniylar davlat boshqaruvi yuqoridan quyiga qarab shakllantirilgan bo'lib, davlat viloyatlarga bo'lib idora qilingan. El-yurt hokimlari eloqxon deb nomlanib, bu unvon egalari «elning oq xoni», ya'ni «buyuk xon» qoraxondan nufuz va darajasiga ko'ra keyingi o'rinda turuvchi «kichik xon» hisoblangan. Elokxonlar xoqon noibi bo'lishsa-da, o'lkada o'z nomlari bilan tanga-chaqalar zarb etib, ichki va tashqi siyosatda mustaqillikka intilishgan. Elokxonlar orasida, Movaro-unnahr eloqxoni katta obro'ga ega bo'lib, u, odatda, Samarqandda turgan. Bu davrda viloyatlarni «takin» unvonidagi kishilar boshqargan. «Takin» atamasi dastlab qadim turkiylarda xoqon vorisi, valiahdiga nisbatan qo'llanilib, keyinchalik harbiy lashkarboshilar unvoni sifatida ham ishlatilgan. somoniylar va qoraxoniylar davriga kelib «takin» unvonidagi harbiy lashkarboshilar ayni vaktida biron-bir viloyat noibligini ham boshqargan. Qoraxoniylar davrida takinlarning nufuzi oshgan. Chunki harbiy yurishlar vaqtida ular davlat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shaharlar boshqaruvi esa shahar hokimi, rais va muhtasiblar qo'lida bo'lgan. Ular shaharning ichki hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqi uchun mas'ul hisoblangan. Diniy hayotda islom dini davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan. Davlatning mustahkamligi va goyaviy birligi uchun qoraxoniylar ruhoniylar bilan yaqin va do'stona munosabatda bo'lishga intilishgan. Bu davrda imomlar, saidlar, shayxlar va sadrlarga e'tibor kuchayib, ularning obro'si nihoyatda baland bo'lgan. Bu esa davlatning siyosiy hayotida ular ta'sirining kuchayishi va vaqf

yerlarining kengayishiga olib kelgan. Madaniyati. Qoraxoniylardavrida turli o'lkalarning birlashishi fan va madaniyat rivojiga ham imkon berdi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Bolasog'un, Qashqar, O'zgan kabi shaharlar ham ma'muriy, ham madaniy markaz sifatida ahamiyati oshib, yanada kengayib, rivojlanib borgan. Qoraxoniylar fan va madaniyatning o'lka hayotidagi muhim o'rnini anglab unga homiylik qilishgan. Buyuk ipak yo'li asosidagi hududlararo savdo-sotiq yanada ravnaq topdi. Shu davrda bunyod etilib, hozirgacha saqlangan Raboti Malik, Masjidi kalon, Minorai kalon, Vobkent minorasi, Jarqo'rg'on minorasi, Mag'oki attori masjidi hamda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim va karvonsaroy kabi inshootlar qoraxoniylar davrida hashamatli binolar qurish san'ati yuksak darajada taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Amaliy bezak san'ati - naqshinkorlik, ganchkorlik va kulolchilik yo'nalishlari rivojlangan. Adabiyot yuksalgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kabi asarlari shu davrda yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Nakshbandi as the great sufi scholar. / International scientific and practical conference "Innovative Development in the global science". Boston (USA), 2022 – P. 18-22.
<https://zenodo.org/record/7419258#.ZDRLUXZByM8>
2. Rajabov Alisher Shavkatovich. Study of the manuscript of the work "Mirotus Solikiyn". / International scientific conference "The role of science and innovation in the modern world". London (United Kingdom), 2022. – P. 122-128.
<https://zenodo.org/record/7472104#.ZDRMeHZByM8>
3. Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg'ona, 2023. – B. 16-19.
4. Rajabov Alisher Shavkatovich. The work of "Mir'otus Solikiyn" as a Theoretical Source of Naqshbandiya Tariqat. / Web of scholars: Multidimensional research journal. 1(8). 2022. – P. 18-21.
<https://www.innosci.org/wos/article/view/567>
5. Rajabov Alisher Shavkatovich. About Bahouddin Naqshband in Mirbobo Naqshbandi's Poetry. / International journal of formal education. 2022. – P. 1-5.
<http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/455>
6. Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences Volume: 01 Issue: 01 | 2021 ISSN: 2181-2594
2021-yil, 20-noyabr. – B. 97-102
<http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/download/274/266>

7.Rajabov Alisher Shavkatovich, Elibayeva Feruza Xamzayevna. O'tkir qilich va qalam sohibi : Bobur merosi jahon olimlari nigohida. / Research and education 2022/2/25. – P. 647

<https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/03/Navoi-and-Babur-conference.pdf#page=647>

8.Alisher Shavkatovich Rajabov. Mirbobo Naqshbandi on the truth of the soul. / Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations.2022 Prague, Czech: 1 (7), 93-101

<https://zenodo.org/record/7467785#.ZDRR-XZByM8>

9.Rajabov Alisher Shavkatovich. Mir Babo Naqshbandi on the Heart of Arif and the Truth of Arif's Condition. / American Journal of Social and Humanitarian Research Vol:3 (12)2022, 50-54

<https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1780/1629>

10.Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy orif qalbi va orif holining haqiqati to'g'risida. / Ilm sarchashmalari. 1-son. Urganch, 2023.B 62-65.

11.A.Sh.Rajabov. "Mirotus solikyn" ("Tariqat soliklarining oynasi") asari – Naqshbandshunoslikda muhim manba. / Tarixiy xotira – o'zlikni anglash va milliy-ma'naviy taraqqiyot omili. 2022.B.70-73.

12.A.Sh.Rajabov. Mir bobo Naqshbandiyning «Mir'otus Solikiyn» asarida qalbning tavsifi. / BuxDPI Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari. Buxoro, 2022-yil, 25-aprel. – B. 707-771.

13.Alisher Rajabov. Mirbobo Naqshbandiy qalbi zikri va uning turlari to'g'risida. / Ilm-fan muommalati yosh tadqiqotchilar talqinida Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. 3-son. 2022-yil, 25-dekabr. – B. 130-137.

14.Sohibqiron Amir Temur davrida madaniyat va ilmiy bilimlarning rivojlanishi (aniq va tabiiy fanlar misolida) va taraqqiyot bosqichlari.International Scientific and Practical Conference Innovative development in the global science vol-2ISSUE-3 2023 Boston USA.30.03.2023.B.53-59

<https://academicsresearch.com/index.php/iditygs>

15.Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi(Hindiston asari)xotiralari xususida ayrim chizgilar.International Scientific and Practical Conference "The role of science and innovation in the modern world". London,United Kingdom.30.03.2023.B.35-44.

<https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1449>

16.Bahouddin Naqshbandga qasida bitgan murid.O'zbekiston Milliy axborot Agentligi.uza.uz.Ilm-fan elektron jurnal.B1-8.20.01.2023.

https://uza.uz/uz/posts/bahouddin-naqshbandga-qasida-bitgan-murid_446829

17. Alisher Rajabov МИББОБО НАҚШБАНДИЙНИНГ НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ ТАМОЙИЛЛАРИ АСОСИДА БИЛДИРГАН ИЖТИМОЙИ-АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИ. В-6-10.Vol. 2 No. 29 (2023): ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI

<https://academicsresearch.com/index.php/conference/issue/view/46>. В-6-10

18. МИББОБО НАҚШБАНДИЙ ҚАЛБ ЗИКРИ ВА УНИНГ ТУРЛАРИ

ТУЎҒРИСИДА Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida. В-130-137

<https://zenodo.org/record/7500616#.ZDTTJ3ZBzDc>

<https://cyberleninka.ru/article/n/mirbobo-na-shbandiy-alb-zikri-va-uning-turlari-t-risida>

19. Алишер Ражабов МИББОБО НАҚШБАНДИЙ ҲАЁТИ ВА МАЪНАВИЙ МЕРОСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ Б-434-440.«ISSUES OF CREATING.THE BASIS OF THE SPIRITUAL.HERITAGE AND III RENAISSANCE:STUDY,RESEARCH,PERSPECTIVES».January2023, Samarkand.

20. A.SH.Rajabov.SOMONIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTI.Vol. 9 No.1(2023):Inernational scientific-practical conference.

“Russian” инновационные подходы в современное науке14.04.2023.В1-8.

<https://www.intereuroconf.com/index.php/ipsn/issue/view/9>

21. A.SH.Rajabov.O'rta Osiyo xalqlari turk xoqonligi tarkibida. Vol. 9 No.1(2023):Inernational scientific-practical conference. “Russian”

инновационные подходы в современное науке. 14.04.2023.В1-10

<https://www.intereuroconf.com/index.php/ipsn/issue/view/9>

22. A.Sh.Rajabov, B.T.Xalilov. (2023). ARABLAR ISTILOSII VA MOVAROUNNAHRNING IJTIMOYIY-SIYOSIY TUZUMI. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM, 2(5), 146–155.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830833>

23. A.Sh.Rajabov, F.Z.Sharipov. (2023). EFTALIYLAR DAVLATINING VUJUDGA KELISHI,IJTIMOYIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY, 2(5), 43–52.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830839>

24. A.Sh.Rajabov,B.B.Latipov.(2023). O'ZBEK XALQINING” SHAKLLANISHDA SHAYBONIYLAR SULOLASINING ROLI “MUHAMMAD SHAYBONIYXON” SIYMOSIDA. Vol. 14 No. 1 (2023):

<https://www.intereuroconf.com/index.php/APSEFMCH/article/view/284>